

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi hafta davomida 434 nafar fuqaro bilan telemuloqot o'tkazdi

Murojaatlar bo'limi xodimlari 25-29 sentyabr kunlari **Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya, akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, Bolalar milliy tibbiyot markazida, Toshkent viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Xorazm viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko'p tarmoqli klinikasida, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali klinikasida, Surxondaryo viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Surxondaryo viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Buxoro viloyati viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Buxoro viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Xorazm viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Samarqand viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Samarqand viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Xorazm viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Farg'ona viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Farg'ona viloyati viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida, Respublika teri-tanosil kasalliklari klinik shifoxonasida, Sirdaryo viloyati Guliston tibbiyot klasterida, Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashtirilgan markazida** imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **318 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqatlar o'tkazdilar.

Bo'lim xodimlari tomonidan o'tkazilgan telemuloqatlar natijasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **20(6,3%) nafar** fuqarolar **shifokorlar qarovi va davolash sifatidan, dori vositalari uchun o'z hisobidan pul mablag'alari sarflaganligi, shifokorlar tomonidan davolanish o'chun po'l to'lov qilish kerakligi talab qilinganligi, shifokor va hamshiralar muomalasidan hamda oziq-ovqatlar sifati** yuzasidan e'tirozlarini bildirgan bo'lsada e'tirozlari yuzasidan Jamg'armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdilar.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon(**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga **116 nafar** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan **"sms" xabarnoma, jamg'arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan og'zaki e'tirozli murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi **ishonch telefonlariga va Jamg'arma manziliga** hafta davomida fuqarolardan 5(4,3%)ta **og'zaki e'tirozli murojaatlar** bo'ldi.

Shulardan:

Sirdaryo viloyati Yangier shahrida yashovchi imtiyozga ega ikki nafar fuqarolar imtiyozli yo'llanma olishda muammolarga uchrayotganligi **yuzasidan Jamg'arma ishonch telefoniga telefon qilib o'zlarining e'tirozli og'zaki murojaatlarini bildirgan bo'lsa**, Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanida yashovchi fuqarolar imtiyozli **yo'llanma olish tartibi, imtiyozli yo'llanmani manzilini o'zgartirish hamda moddiy yordam so'rab tashkilot manziliga og'zaki murojaat qilib keldi.**

Yuqoridagi holatlar bo'yicha Jamg'armaning xududiy bo'linma va bosh mutaxassislariga hamda tibbiyot muassasa rahbariyatiga fuqarolarning ma'lumotlari telefon orqali berildi, fuqarolar murojaatlari bo'yicha qaysi tashkilotga murojaat qilish kerakligi tushuntirildi, og'zaki e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.

Xorazm viloyati Yangibozor tumani va Buxoro viloyati Shofirkon tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqarolar imtiyozli yo'llanma bilan davolanganligi, davolanishda shifoxona shifokorlaridan hamda Jamg'arma rahbariyatidan minnatdorchiligini bildirib og'zaki murojaat qildi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasining 2023-yil 15-sentyabrdagi №79-xs xizmat safari to'g'risidagi buyrug'i asosida 24-28 sentyabr kunlari Murojaatlar bo'limi xodimi Qozog'iston Ijtimoiy tibbiy sug'urta jamg'armasi **Call markaz** faoliyati bilan yaqindan tanishish hamda faoliyatini o'rganish maqsadida Qozog'iston Respublikasiga xizmat safari bilan bo'ldi.

Qozog'iston Respublikasining Ijtimoiy tibbiy sug'urta jamg'armasiga qilgan safari yuzasidan Xalqaro munosabatlar bo'limiga hisobot tayyorlanib topshirildi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy **434 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o'tkazdilar.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmati**